



O'ZBEKISTONDA ZAXIRASI KAM BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR

J.M. Yarmuhammedov

BuxDU o'qituvchi,

D.O. Umarova

BuxDU talaba,

L.B. Xaitova

BuxDU talaba.

Annotatsiya: *Tabiiy holda o'suvchi dorivor o'simliklarning xomashyo zaxirasi chegaralangan bo'lib, ularni muhofaza qilish, bioekologik xususiyatlarini o'rganish, xomashyo zaxirasidan to'g'ri foydalanish va ko'paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir. Ushbu maqolada yurtimizda zaxirasi kam bo'lgan dorivor o'simliklarning tuzilishi, kimyoviy tarkibi va tibbiyotda ishlatilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Zaxira, muhofaza, kovrak, shafran, yetmak, bozulbang, omonqora, dorivor o'simlik, barg, ildiz, poya .*

KIRISH

Dorivor o'simliklar-o'zida odam va hayvon organizmlariga ta'sir qiluvchi biologik faol moddalarni saqlovchi, tibbiyot maqsadida foydalaniladigan o'simliklardir. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 112 tur dorivor o'simliklar rasmiy tabobatda foydalanishga berilgan bo'lib, ushbu dorivor o'simliklarning 80% ni tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil qiladi.

ASOSIY QISM

Gangituvchi bozulbang (*Lagahilus inebrians*) yasnotkadoshlar (*Lamiaceae*) oilasiga kiradigan ko'p yillik, bo'yi 20-70 sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi sershox, ko'tariluvchi, asos qismi yog'ochlangan, to'rt qirrali, qattiq bezli tuklar bilan qoplangan. Bargi oddiy, uch-besh bo'lakka qirqilgan, poyada bandi bilan qarama-qarshi joylashgan. Gullari pushti rangli, poyada va shoxlarida yarim-xalqa shaklida joylashgan. Mevasi 4ta yong'oqcha.

Bozulbang tarkibida vitamin K, 0.6-1.97% lagoxilin, 0.67% flavon glikozidlari, 0.068-0.22% efir moyi, 0.20%staxidrin, 44-77% askorbin kislota,

6-7% organik kislotalar, 5-10% karotin 2.58-2.78% oshlovchi va boshqa moddalar hamda kalsiy, temir tuzlari bo'ladi. Bozulbang bargi tarkibida lagoxilin 0.03% efir moyi, 11-14% oshlovchi moddalar, organik kislotalar, 7-10% karotin va 77-100% vitamin C bor.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Bozulbang dorivor preparatlari bachdondan o'pkadan qon oqishini burun qonashini va gemorroidal qon oqishini to'xtatish, gemofiliya hamda Verlgof kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi.

Jumrutsimon chakanda (*Hippophae rhamnoides* L.) jiydadooshlar (*Elaeagnaceae*) oilasiga kiruvchi bo'yiga 4-5m ga yetadigan ikki uyli buta yoki daraxtcha. Poyasi sershox va tikanli bo'lib, qo'ng'ir-yashil po'stloq bilan qoplangan. Bargi oddiy, chiziqsimon yoki chiziqsimon-lentasimon, tekis qirrali, yuqori tomoni kulrang-to'q qizil, pastki Tomoni esa oq yoki qo'ng'ir rang yuldzisimon tangachalar bilan qoplangan, shuning uchun biroz sarg'ish, qo'ng'ir kulrang yoki oq tusli. Barglari poyada kalta bandi bilan ketma-ket joylashgan. Gullari bir jinsli, ko'rimsiz. Otalik gullari mayda, kumush-qo'ng'ir rangli bo'lib, kalta boshqoqchaga to'plangan. Otalik gulidagi gulqo'rg'oni 2 ta ellipsimon bargchadan tashkil topgan. Changchilari 4ta, urug'chi gullari 2-5 tadan bo'lib qisqa bandi bilan shoxchalar qo'ltig'ida o'rnashgan. Onalik gulida gulqo'rg'oni naychasimon, ikki bo'lakli, ichki tomoni sariq rangga bo'yalgan. Onalik tuguni bir xonali, yuqorida joylashgan. Mevasi dumaloq yoki cho'zinchoq, to'q sariq yoki qizg'ish rangli, sersuv, danakli meva. Aprel-may oylarida gullaydi, mevasi avgustdan boshlab oktyabrgacha pishadi. Mevasi to'kilmasdan kelasi yil bahorgacha o'simlikda saqlanib qoladi.

Omonqora o'simligi turlari (Viktor omonqorasi, Severtsev omonqorasi)- (*Ungernia viktoris*) Vved-Amaryllyidaceae chuchmomadoshlar oilasiga mansub bo'lib, ko'p yillik piyozboshli o't o'simlik. Piyoz tuxumsimon, uzunligi 7-11 sm, diametri 4-12 sm bo'lib, yuqori qismi qora-qo'ng'ir rangli yupqa qobiqlar bilan o'ralgan. Ildizoldi barglari 7-10 dona ingichka tekis qirrali, ikki qator joylashgan. Yerdan qor ketmasdanoq o'simlikning ildizoldi barglari ko'karadi. Yoz oylarida barglari qurib qoladi. Bir ikki oydan so'ng bargsiz(gul o'qi) o'sib chiqadi. Gul o'qining uzunligi 5-30 sm, uchida oddiy soyabonga to'plangan va bir tomonga egilgan gullar joylashgan. Mevasi pishganda ochiladigan uch chanoqli ko'sakcha.

O'simlik bargi tarkibida 0.33-1%, piyozida 8-0.9% va ildizida 1.8-2.55% alkaloid bo'ladi.(galatamin,likorin)

Galantamin gidrobromid tuzi miasteniya, miopatiya, poliomiyelet asoratlari hamda polinevrit, radikulit kasalliklarini davolashda, ichak va qovuqning bo'shashishida ishlatiladi.

Yetmak (*Acanthophyllum*) - chinniguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simliklar bir necha turlarining umumiy nomi. O'zbekistonning adir va tog' yonbag'irlarida o'sadi. Bo'yi 50-80 sm barglari qarama-qarshi, shapaloq, qalami yoki nashtarsimon. Barg bandi va sershox poyasi tuksiz yoki mayda tukchalar bilan qoplangan. Gullari mayda shoxlarining uchida ikkitadan joylashgan. Gul- bargi 5ta,



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

och pushti changchisi 10ta, 2 qator joylashgan. Mevasi bir urug'li. Urug'i och jigarrang yoki qo'ng'ir, qattiq qobiqli. Ildizi burama o'q ildizdan iborat bo'lib, 2m dan ortiq chuqurlikka boradi. Yetmak ildizining tarkibida 10-30 % saponin moddasi, shuningdek oglikonogipsogen, 3molekula ksiloza va bir ,molekula glyukuron kislotasi, galaktoza, ramnoza, furoza va arabinoza kabi moddalar bor.

Ildizidan aholi nisholda tayyorlashda ko'pirtiruvchi modda sifatida foydalanib keladi. Yetmak oziq-ovqat, qandolat va vinochilik sanoatida, tibbiyotda (balg'am ko'chiruvchi va organizmni mustahkamlovchi dorilar tayyorlashda qo'llaniladi.

Kovrak - (Ferula foetida.) Apiaceae oilasiga kiruvchi ko'p yillik monokarpik o'simlik. Ildizi qalin. Poyasining balandligi 2m, 6-10 yillarda paydo bo'ladi. U yuqori qismida zich sharsimon to'pgul- soxta halqani hosil qiladi. Barglari yumshoq, ostki qismi tukli. Mevalari yassi, ellipssimon. Tojibarglari och sariq rangda.

Kimyoviy tarkibi- tarkibida 60% ferula kislotasi, azaresitannol, kumarinlar, efir moyi, vanillin va boshqa bir qator moddalar mavjud.

Ishlatilishi - kovrak shirasi asosan jazavada (vasvasa), shuningdek, ichakdan havo haydovchi va balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Og'riq qoldiruvchi, tinchlantiruvchi, ich suruvchi xususiyatlarga ega.

Zafaron - (Crocus sativus L.) gulsapsardoshlar Iridaceae oilasiga mansub, tabiiy gibrid, urug' hosil qilmaydigan ko'p yillik tugunakpiyozli o'simlik. Piyozi diametri 1-2 santimetr. Bargi 5-15 ta, och sariq rangda; eni

2 mm, tuksiz. Guli 1-4 ta, gultoji oqish, pastki qismi (tashqi tomondan) binafsha rang, uzunligi 2-4 sm. Changchilari gulqo'rg'ondan qisqa. Ko'sagi cho'ziq, eni 6-7 mm.

Kimyoviy tarkibi - 10-12 % suv, 5-7 % mineral moddalar, 5-8 % moy va mo'm , 12-13 % oqsil va eng oz miqdorda yog' ekstraktidan iborat o'ziga xos va xushbo'y yoqimli moddalardan tarkib topgan.

Ishlatilishi - Za'faron ovqat hazm qilishni yaxshilab, ishtahani ochadi, organizmning hayotiy faolligini yaxshilaydi, kishilar undan oshqozon, yurak, jigar nafas olish a'zolari va asab tizimini mustahkamlashda, buyraklarni tozalashda, og'riqni qoldirishda, tinchlantiruvchi, peshob, o't va ter haydovchi vosita sifatida foydalanishadi. Lekin homiladorlikda uni iste'mol qilib bo'lmaydi, chunki

u homilani muddatidan oldin tushishiga sabab bo'lishi mumkin. Za'faron dorishunoslik sanoatida keng ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, Respublikamiz sharoitida o'sadigan dorivor o'simliklarni juda xam ko'p. Mahalliy aholi bunday o'simliklarning mo'jizaviy kuchi haqida oldindan bilishadi. Ular iste'mol qilinadi, ziravor sifatida ovqatlarga qo'shiladi, choy damlanadi, dori sifatida ishlatiladi shuningdek kosmetologiya



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

yo'nalishida ham qo'llaniladi. Kundalik turmushimizda iste'mol etiladigan meva, sabzavotlar, ziravorlar bilan birga dorivor o'simliklardan uy sharoitida damlama ,qaynatmalar tayyorlab ,turli xil kasalliklarni oldini olish mumkin . Har bir mahsulot tarkibida tabiiy minerallar , vitaminlar va biologik faol moddalar mavjud.

FOYDALAILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Y.Yo'xtayev, E.T.Ahmedov (2021) Dorivor o'simliklarni o'stirish va yetishtirish, Tasvir Toshkent-2021.
2. M.A.Sobirov, N.T.Farmonova, Z.S.Saloxiddinov, M.Z.Rizamuxammedova (2019), Dorivor o'simliklar atlas, Toshkent-Noshir -2019.
3. O'.Ahmedov, A. Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, S.Azimboyev, (2019) Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar, Toshken Iqtisod-Moliya-2018.
4. B.Y. To'xtayev, A.Q.G'aniyev, A.K.Ahmedjanova, F.M.Mardonov, N.Q.Asqarov (2023) Dorivor va ziravor o'simliklarni aholi tomorqalarida yetishtirish va ulardan foydalanish, Ilm-Ziyo-Zakovat Toshkent 2023.
5. Isoqov Tohirjon Tursunboy o'g'li, Mamatyusupova Ro'zixon G'ofurjon qizi, Esonova Iroda Usmon qizi, International Scientific-practical conference actual Issues of agricultural development: Problems and solutions, 2023.
6. B.Y. To'xtayev Shafran (zafaron) yetishtirish, "Tasvir" nashriyot uyi Toshkent-2021